

**OLIY TA'LIM MUASSASASI PROFESSOR-O'QITUVCHILAR REYTINGINI
ANIQLASHNING DASTURIY TAMINOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

Toxirov Bobur

Andijon davlat universiteti
tokhirovbob@gmail.com

Medatov Asilbek

Andijon Davlat Universiteti

Annotatsiya

Ushbu ishda oliy ta'lismuassasasi professor-o'qituvchilar reytingini aniqlashning dasturiy taminotini takomillashtirish masalasi o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lismuassasasi, professor-o'qituvchilar, reyting tizimi, dasturiy taminot, monitoring qilish

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДЛЯ
ОПРЕДЕЛЕНИЯ РЕЙТИНГА ПРОФЕССОРОВ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ
ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ**

Аннотация. В данной работе рассматривается вопрос совершенствования программного обеспечения для определения рейтинга профессоров и преподавателей высших учебных заведений.

Ключевые слова: ВУЗ, преподаватели, рейтинговая система, программное обеспечение, мониторинг

**IMPROVING THE SOFTWARE FOR DETERMINING THE RANKING OF
PROFESSORS AND TEACHERS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

Annotation. This paper examines the issue of improving the software for determining the ranking of professors and teachers of higher education institutions.

Keywords: Higher education institution, professors, rating system, software, monitoring O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloq qilishning ustuvor yo'naliishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi

bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, oliy ta’lim tizimi uchun maqsad va vazifa etib belgilab olindi. Ushbu vazifalardan biri, “- ta’lim sifatini nazorat qilish va oliy ta’lim muassasalari reytingini yuritishning nodavlat tizimini yaratish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar belgilash”[1] dan iboratdir. Ushbu vazifadan kelib chiqib professor-o‘qituvchilar reytingini aniqlash tizimi ishlab chiqildi.

Yuqorida ko‘rsatib o’tilgan hukumat qarorlarini ijrosini ta’minalash maqsadida Respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilar reytingini aniqlash borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Xalqaro miqiyosida Rossiya davlati Universitetlarini baholash va reyting tizimlarini joriy qilish bo‘yicha “Oliy ta’limni mustaqil baholash agregatori” mavjud [2]. Universitetlarni baholashda mustaqil expertlar mavjud va ular Universitetlarning barcha sohalarini qamrab olgan holda baholashni amalga oshiradi.

Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarning reytingni aniqlash va ularni raqamlashtirish, oliy ta’lim muassasalarida kadrlarni salohiyatini va professor-o‘qituvchilar o’rtasida raqobatni oshirishga olib keladi. Buning natijasida esa, bizning asosiy maqsadimiz talabalarning bilim va salohiyatlarini yanada rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari reyting tizimi barcha uchun ochiq bo‘lganida professor-o‘qituvchilar o’rtasida ijobjiy raqobatni rivojlanadi, professor-o‘qituvchilarning OTM dagi o’rni, kafedralarning reytingini aniqlash imkoniy yaratiladi. Aniqlangan reyting natijasida professor o‘qituvchilar o’zlarini monitoring qila boshlaydi. Bunday reyting tizimlari, ta’lim tizimi rivojlangan davlatlarda doimiy ravishda qo’llanilib kelinmoqda.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan tizimning maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- ✓ Professor-o‘qituvchilar tomonidan himoya qilingan dissertatsiyalarni monitoring qilish;
- ✓ Professor-o‘qituvchilar tomonidan chop etilgan ilmiy maqolalarni ro‘yxatini elektron nazorat qilib borish;
- ✓ Xorijiy va milliy ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan olingan moliyaviy mablag’larni elektron ro‘yxatini shakllantirish va nazorat qilib borish;
- ✓ Professor-o‘qituvchilar tomonidan qilingan ixtiro, foydali model va olingan avtorlik guvohnomalar ro‘yxatini shakllantirib borish;
- ✓ Xorijiy davlatlarning o‘qituvchilari va talabalarini elektron ro‘yxatini shakllantirib borish;
- ✓ Universitetning professor-o‘qituvchilar reytingini aniqlash;
- ✓ Universitetning ichki fakultetlararo reytingini aniqlash;
- ✓ Universitetning yillar davomidagi reytingini va osish ko‘rsatkichlarini monitoring qilish.

Ushbu reytingni biz 30 ga yaqin kriteriyalar asosida ishlab chiqamiz va kuzatib boramiz.

Xulosa qilib aytganda ishlab chiqilgan tizimning asosiy maqsadi ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limini ishini avtomatlashtiradi. Kafedra mudiri, dekanat va Oliy ta’lim muassasasi raxbariyati tomonidan har bir professor-o‘qituvchining reytingini shaffof baxolash imkoniyatini yaratadi.

Foydalaniman adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent sh., 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-son
2. Approaches to evaluating teacher effectiveness. Washington, June 2008
3. Medatov A.A. Online Performance Learning on E- Learning Systems. European Journal of Life Safety and Stability (EJLSS). Volume 12, 2021
4. Показатели оценки деятельности профессорско-преподавательского состава, кафедр и институтов университета. Новосибирск, 2016
5. Рейтинг преподавателей, Факультетов и кафедр в вузе. Санкт-Петербург, 2007
6. <https://best-edu.ru>